

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA SAVDO LEKSIKASINING LEKSIK- SEMANTIK TAHLILI

Bozorova Sevara

aimatovas208.4@gmail.com

Qarshi davlat universiteti doktoranti, Qarshi shahri

Annotatsiya

Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillaridagi savdo leksikasining leksik-semantik xususiyatlari qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqotda monosemantik va polisemantik birliklarning o'ziga xos xususiyatlari, ularning qo'llanish doirasi va semantik barqarorligi o'rganiladi. Shuningdek, sinonimik va antonimik munosabatlar hamda giponim-giperonim tizimi ikki til misolida tahlil qilinib, savdo leksikasining mazmuniy tuzilmasidagi o'xshash va farqli jihatlar aniqlanadi.

Kalit so'zlar: savdo leksikasi, leksik-semantik tahlil, monosemiya, polisemiya, sinonim, antonim, giperonim, giponim.

Global iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishi bilan savdo sohasiga oid leksik birliklar til tizimida keng qo'llanilmoqda. Har bir til savdo atamalarini o'zining madaniy, iqtisodiy va ijtimoiy tajribasi asosida shakllantiradi. Ayniqsa, ingliz va o'zbek tillarida “savdo” va “trade” leksik birliklarining leksik-semantik xususiyatlarini o'rganish, ularning o'xshash va farqli jihatlarini tahlil qilish zamonaviy tilshunoslik uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Ushbu **tadqiqotning maqsadi** ingliz va o'zbek tillaridagi savdo sohasiga oid leksik birliklarning monosemantik va polisemantik xususiyatlarini, giperonim-giponim, sinonimik va antonimik munosabatlarini qiyosiy tahlil asosida aniqlashdan iborat. **Tadqiqot obyekti** sifatida ingliz tilidagi “trade” atamasi va unga semantik jihatdan yaqin bo'lgan birliklar hamda o'zbek tilidagi “savdo” mazmunli leksik birliklar tanlab olindi.

Tadqiqot mavzusiga oid leksik-semantik tizimlar bo'yicha olib borilgan ishlar tilshunoslikning bir necha paradigmatic munosabatlarini qamrab oladi. Sinonim va antonim munosabatlar masalasida David Alan Cruse'ning “*Lexical Semantics*” asari paradigmatic bog'lanishlarning semantik mezonlari, gradatsiya va kollokatsion cheklovlarini yoritadi.¹ Lynne Murphy esa “*Semantic Relations and the Lexicon*” asarida sinonim va antonimlarning kognitiv hamda diskursiv jihatlarini, domen

¹ Cruse D. A. *Lexical Semantics*. – Cambridge: Cambridge University Press, 1986. – 310 p.

chegaralarini tahlil qiladi.² Steven Jones tomonidan taklif etilgan antonimiya tasnifi savdo leksikasidagi qarama-qarshi juftliklarni aniq tipologiyalash imkonini beradi.³

Giponimiya va giperonimiya munosabatlari bo'yicha John Lyons'ning *"Introduction to Theoretical Linguistics"* asarida tur-jins munosabatining nazariy asoslari berilgan bo'lib, bu savdo leksikasidagi kategoriya va kichik turlar iyerarxiyasini aniqlashda muhim ahamiyatga ega.⁴ O'zbek tilshunosligida Oybek Ahmedov iqtisodiy terminlarning tarjimasida semantik qatlamlarni o'rgangan bo'lsa, Hamidulla Dadaboyev *"O'zbek terminologiyasi"* qo'llanmasida termin tizimlari va iyerarxiyalarini tizimlashtirgan.⁵

Monosemiya va polisemiya bo'yicha Cruse monosemantik va polisemiya birliklarni farqlash mezonlarini belgilab bergan, bu *"market"* kabi leksemalarning joy, soha yoki iqtisodiy jarayon ma'nolarini ajratishda qo'llanilishi mumkin. Yael Ravin va Claudia Leacock polisemiya turlarini (metaforik, metonimik, konstruksional) tasniflab, ularni korpus lingvistikasiga tatbiq etgan.⁶ James Pustejovskiy *"The Generative Lexicon"* asarida esa mantiqiy polisemiya va qualia tuzilmalarini ishlab chiqqan bo'lib, iqtisodiy atamalardagi ma'no tarmoqlanishini tushuntirishda foydalidir.⁷ O'zbek tilining izohli lug'atlari esa monosemantik va ko'p ma'noli birliklarning real nutqdagi ishlatilishidan dalillar keltiradi.⁸

Umuman olganda, mavjud ilmiy manbalar tadqiqot uchun nazariy va metodologik asos yaratadi: sinonim-antonim tizimlar bo'yicha semantik va kognitiv yondashuvlar, giponim-giperonim iyerarxiyalarining tasnifi hamda monosemiya-polisemiya jarayonlarining nazariy va amaliy tahlili savdo sohasidagi leksik birliklarni qiyosiy o'rganish uchun zarur konseptual maydonni ta'minlaydi.

O'zbek tilidagi *"savdo"* so'zi fors-tojik tilidan olingan bo'lib, dastlab *"almashtirish"*, *"sotuv"* yoki *"bitim"* ma'nolarida ishlatilgan. Mazkur so'z o'zbek

² Murphy M. L. *Semantic Relations and the Lexicon: Antonymy, Synonymy and Other Paradigms*. – Cambridge: Cambridge University Press, 2003. – 279 p.

³ Jones S. *Antonymy: A Corpus-Based Perspective*. – London: Routledge, 2002. – 212 p.

⁴ Lyons J. *Introduction to Theoretical Linguistics*. – Cambridge: Cambridge University Press, 1968. – 519 p.

⁵ Dadaboyev H. *O'zbek terminologiyasi: o'quv qo'llanma*. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2020. – 136 b.

⁶ Ravin Y., Leacock C. *Polysemy: Theoretical and Computational Approaches*. – New York: Oxford University Press, 2000. – 250 p.

⁷ Pustejovskiy J. *The Generative Lexicon*. – Cambridge, MA: MIT Press, 1995. – 320 p.

⁸ O'zbek tilining izohli lug'ati. – 5 jild. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006. – 672 b.

tilida qadimdan iqtisodiy munosabatlar, bozorchiilik va turmush faoliyatining muhim jihatini ifodalagan. Unga yaqin sinonimlar: *oldi-sotdi, tijorat, bozor, savdogarlik*.

Ingliz tilidagi “*trade*” soʻzining ildizi qadimgi german tillariga borib taqaladi. Dastlab “*track*” (*yoʻl*) va “*tread*” (*yurmoq*) soʻzlariga aloqador boʻlib, tovarlar bilan harakat qilish, yaʼni savdo-sotiqni anglatgan. Bugungi kunda “*trade*” soʻzi ingliz tilida keng koʻlamli semantik bazaga ega: *kasb (carpentry trade), xalqaro savdo, birja savdosi (stock trade)* kabi maʼnolarni oʻz ichiga oladi.

Oʻzbek tilidagi “*savdo*” soʻzi asosan iqtisodiy harakat, olib-sotish bilan bogʻliq boʻlsa, ingliz tilidagi “*trade*” soʻzi semantik kengayish orqali kasb-hunar, diplomatik munosabatlar va iqtisodiy sohalarni qamrab olgan. Bu ingliz tilidagi **koʻp maʼnolilik** – **polysemy** holatining kuchliroq ekanini koʻrsatadi.

Ingliz tilida “*trade*” soʻzi asosida hosil boʻlgan leksik birliklar koʻplab terminlarda uchraydi: *free trade – erkin savdo, trade agreement – savdo bitimi, trade deficit – savdo kamomadi*. Oʻzbek tilida esa *savdo markazi, savdo bitimi, savdo palatasi* kabi birikmalar mavjud. Har ikkala tilda ham “*savdo*” va “*trade*” termin sifatida muhim leksik yadroni tashkil etadi, biroq ingliz tilida bu birliklar koʻproq **kompozitsion birliklar** va **birikmalar** orqali semantik jihatdan boyitiladi.

Oʻzbek tilidagi savdo leksikasi koʻproq anʼanaviy bozor madaniyati, shaxsiy aloqalar, muzokaralar, savdolashish kabi ijtimoiy hodisalar bilan bogʻliq. Unda insoniy munosabatlar va koʻp hollarda ogʻzaki kelishuvlar ustuvor. Ingliz tilida esa huquqiy asoslangan savdo tizimi, kompaniyalararo munosabatlar, virtual savdo, birja mexanizmlari bilan bogʻliq. Bu jamiyatdagi texnologik taraqqiyot va tizimlilik darajasini koʻrsatadi.

Leksik tizim nuqtai nazaridan “*savdo*” va “*trade*” har ikkala tilning tematik sohalari – iqtisod, biznes, bozor, huquq, logistika va xalqaro aloqalar bilan bogʻliq soʻzlar doirasiga kiradi.

Monosemantik birliklar faqat bitta asosiy maʼnoga ega boʻlib, ularning talqini kontekstga koʻra oʻzgarmaydi. Oʻzbek tilida “*savdo markazi*”, “*savdo palatasi*”, “*savdo soligʻi*” kabi birikmalarda “*savdo*” atamasi monosemantik xarakter kasb etadi. Bu soʻzlarda u har doim iqtisodiy faoliyat, tovar almashinuvi bilan bogʻliq maʼnoni anglatadi. Ingliz tilida “*trade deficit*”, “*trade agreement*”, “*trade route*” kabi iboralarda “*trade*” atamasi ham nisbatan barqaror, yaʼni bitta kontekstga xizmat qiladi. Har ikki tilda “*savdo*” va “*trade*” terminologik kontekstdagi ishlatilishida monosemantik tus oladi, chunki ularning semantik doirasi aniq chegaralangan boʻladi.

Polisemantik birliklar bir nechta ma'noga ega bo'lib, ular kontekstga qarab o'zgaradi. Quyidagi gaplar "*trade*" so'zining zamonaviy ingliz tilida faol semantik kengayishga ega ekanligini ko'rsatadi:

He is in the carpentry trade (kasbni ifodalaydi).

They trade stocks on the market (sotmoq fe'lini anglatadi).

They made a trade (bitimni ifodalaydi).

O'zbek tilida "*savdo*" so'zi ko'proq asosiy ma'noda tovar almashinuvi kontekstida ishlatiladi. Biroq ba'zi hollarda metaforik yoki kontekstual ma'no hosil qilishi mumkin:

Har savdoga ko'nadi bandaning boshi,

To'kilar kuyganning ko'zidan yoshi.

Bu she'riy parchada "*savdo*" so'zi inson hayotida uchraydigan g'am-tashvish, mashaqqat va kulfatni anglatadi. Bundan tashqari, "*ishq savdosi*", "*umr savdosi*", "*ayriliq savdosi*", "*farzand savdosi*" kabi birikmalarda "*savdo*" so'zi ko'chma ma'noda qo'llaniladi. Mazkur misollarda so'z asl iqtisodiy ma'nosidan uzoqlashib, hayotiy yoki hissiy-ruhiy holatlarni ifodalaydi. Badiiy adabiyotda bu kabi metaforalar hissiy ta'sirni kuchaytirish, voqea yoki holatni jonli tasvirlashga xizmat qiladi.

Ingliz tilidagi "*trade*" so'zining polisemantik imkoniyatlari o'zbek tilidagiga nisbatan kengroqdir. Bu ingliz tilidagi leksik birliklarning yuqori kontekstga moslashuvchanligidan dalolat beradi. "*Trade*" so'zi ingliz tilida rasmiy hujjatlarda, iqtisodiy matnlarda, kasb va diplomatik aloqalarda termin sifatida faol ishlatiladi. Shuningdek, u umumiy nutqda ham uchraydi: *I'll trade my sandwich for your juice.*

Savdo sohasi keng semantik maydonga ega bo'lib, unga turli darajadagi leksik birliklar kiradi. Bu sohada harakat ishtirokchilari, tovar va xizmatlar, narxlar, jarayonlar va huquqiy atamalar alohida semantik guruhlarini tashkil etadi.

Ingliz tilida savdo sohasi leksikasi quyidagi asosiy birliklarni o'z ichiga oladi: *trade, business, transaction, deal, commerce, market, buyer, seller, cost, price, profit, export, import, stock, retail, wholesale.*

O'zbek tilida esa quyidagilar asosiy birliklar sifatida qaraladi: *savdo, tijorat, oldi-sotdi, bozor, xaridor, mijoz, sotuvchi, narx, xarajat, foyda, zarar, eksport, import, chakana, ulgurji.*

Har ikki tilda savdo sohasidagi birliklar semantik maydonning markaziy yadrosini tashkil etadi. Ingliz tilida leksik birliklar ko'proq texnik va rasmiy ko'rinishda bo'lsa, o'zbek tilida ular ba'zida og'zaki nutq va milliy madaniyatga xos ifodalar bilan boyitilgan.

Sinonimik birliklar bir-biriga yaqin ma'noni bildiruvchi so'zlar bo'lib, savdo leksikasida bu turdagi birliklar ma'no nozikliklarini ifodalashga xizmat qiladi. Ingliz tilida quyidagi sinonimik birliklar uchraydi:

seller – vendor – dealer

buyer – purchaser – customer – client

trade – commerce – business – transaction

Ingliz tilidagi sinonimik birliklar aniq kontekstlarda farqlanadi: *client* odatda xizmat ko'rsatilishi kerak bo'lgan shaxsni bildirsa, *buyer* mahsulot xaridoriga nisbatan ishlatiladi. O'zbek tilida esa bunday farqlanish kamroq, ayrim so'zlar, masalan, *mijoz* va *xaridor* bir-birining o'rnida ishlatilaveradi. Bu o'zbek tilida sinonimik qatordagi semantik chegaralarning nisbatan kengroq ekanini ko'rsatadi:

sotuvchi – savdogar – do'kondor

savdo – oldi-sotdi – tijorat

Antonimlar – bir-biriga zid ma'noli so'zlar bo'lib, asosan belgi anglatuvchi leksemalarga xos. O'zbek va ingliz savdo leksikasida quyidagi antonimik juftliklar mavjud:

foyda – zarar

profit – loss

arzon – qimmat

cheap – expensive

import – eksport

import – export

sotish – xarid qilish

buy – sell

daromad – chiqim

income – expense

Cruse ta'kidlaganidek, antonimlar til tizimida “*typically members of one-to-one relations, rather than one-to-many or many-to-many*” bo'lib, ular bir-biriga mustahkam semantik bog'langan juftliklar sifatida shakllanadi.⁹ Bu holat ixtisoslashgan leksik sohalarda, xususan, iqtisodiy matnlarda yaqqol ko'zga tashlanadi: *demand – supply (talab – taklif)*.

Tilshunoslikda leksik birliklar o'rtasidagi iyerarxik ma'no munosabatini ifoda etuvchi **giponim** va **giperonim** tushunchalari mavjud. Giperonim kengroq, umumiy tushunchani bildirsa, giponim shu umumiy tushuncha doirasidagi torroq, xususiy tushunchani anglatadi. Savdo leksikasida ham bunday iyerarxik aloqalar uchraydi. Masalan, *tovar* – giperonim, uning tarkibidagi *elektr jihozlari, kiyim-kechak, oziq-ovqat* esa giponimlardir. Shuningdek, *savdo* keng tushuncha – giperonim bo'lib, *chakana savdo* va *ulgurji savdo* uning giponimlariga kiradi.

Ingliz tilida esa quyidagi misollarni ko'rishimiz mumkin:

goods (giperonim) → *electronics, clothing, groceries* (giponimlar)

⁹ Cruse D. A. Lexical Semantics. – Cambridge: Cambridge University Press, 1986. – 349 p.

market → *stock market, fish market, black market*

Har ikki tilda giponimlar giperonimga nisbatan aniqroq va tor doirani bildiradi. Ingliz tilida bunday struktura ko‘proq terminologik aniqlikka asoslangan bo‘lsa, o‘zbek tilida esa semantik munosabatlar ko‘proq kontekst asosida shakllanadi.

Mazkur tadqiqot ingliz va o‘zbek tillaridagi savdo leksikasining leksik-semantik xususiyatlarini qiyosiy tahlil qilish orqali ularning umumiy va farqli jihatlarini yoritdi. “Savdo” va “trade” birliklari har ikki tilning iqtisodiy sohasidagi markaziy terminlari bo‘lib, semantik maydon, sinonimik-antonimik tizim, giperonim-giponim munosabatlari va monosemiya-polisemiya xususiyatlarida muayyan farqlar mavjudligi aniqlandi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ingliz tilida “trade” so‘zi semantik kengayish va kontekstual moslashuvchanlik jihatidan o‘zbek tilidagi “savdo”ga nisbatan ancha faol bo‘lib, kasb-hunar, diplomatik aloqalar va iqtisodiy jarayonlar bilan bevosita bog‘langan ko‘plab qo‘llanmalarga ega. O‘zbek tilida esa an’anaviy bozor madaniyati, shaxsiy muloqot va og‘zaki kelishuvlarga tayangan ma’no qatlamlari bilan ajralib turadi.

Sinonimik qatorda ingliz tilida kontekstual farqlanish aniqroq bo‘lsa, o‘zbek tilida semantik chegaralar kengroq va ba’zan ustma-ust keladi. Antonimik juftliklar ikkala tilda ham iqtisodiy leksikaning ajralmas qismi bo‘lib, ma’no qarama-qarshiliklarini ifodalashda muhim rol o‘ynaydi. Giponim-giperonim tizimi esa ingliz tilida aniq terminologik tasnifga ega bo‘lsa, o‘zbek tilida ko‘proq kontekst asosida shakllanadi.

Ushbu tadqiqot natijalari tarjima amaliyoti, iqtisodiy matnlarni tahlil qilish, til o‘rgatish va lug‘at tuzishda amaliy qo‘llanilishi mumkin bo‘lib, ikki tilning savdo leksikasidagi semantik tizimni yanada chuqurroq o‘rganishga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Cruse D. A. *Lexical Semantics*. – Cambridge: Cambridge University Press, 1986. – 310 p.
2. Dadaboyev H. *O‘zbek terminologiyasi: o‘quv qo‘llanma*. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2020. – 136 b.
3. Jones S. *Antonymy: A Corpus-Based Perspective*. – London: Routledge, 2002. – 212 p.
4. Lyons J. *Introduction to Theoretical Linguistics*. – Cambridge: Cambridge University Press, 1968. – 519 p.

5. Mavlyanov S. O'zbek tili diplomatik terminlari tizimida semantik munosabatlar // O'zbekiston: til va madaniyat. – 2022. – B. 45-54.
6. Mengliyev B. Hozirgi o'zbek tili: darslik. – Toshkent: Tafakkur bo'stoni, 2018. – 200 b.
7. Murphy M. L. Semantic Relations and the Lexicon: Antonymy, Synonymy and Other Paradigms. – Cambridge: Cambridge University Press, 2003. – 279 p.
8. Pustejovskiy J. The Generative Lexicon. – Cambridge, MA: MIT Press, 1995. – 320 p.
9. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili: darslik. – Toshkent: Universitet, 2006. – 476 b.
10. Ravin Y., Leacock C. Polysemy: Theoretical and Computational Approaches. – New York: Oxford University Press, 2000. – 250 p.
11. O'zbek tilining izohli lug'ati. – 5 jild. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006. – 672 b.
12. Axmedov O. S. Иктисодиёт терминларини тартибга солиш масаласи хусусида (ўзбек ва инглиз тиллари мисолида) // НамДУ илмий ахборотномаси – Научный вестник НамГУ. – 2020. – Б. 195-203.
13. Миртожиев М. Ўзбек тилида полисемия. – Тошкент: Фан нашриёти, 1984. – 140 б.